

“O‘ZBEKISTONDAGI ILMIY YANGILIKLAR JURNALI”

25-Iyun, 2025-yil

DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MEXANIZMLARI ASOSIDA O‘ZBEKISTONDA INNOVATSION LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Amonov Muxammadjon Akmal o‘g‘li

Buxoro Innovatsiyalar Umiversiteti

70310102- Iqtisodiyot mutaxassisligi magistri

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekistonda innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmlarining roli va samaradorligi tahlil qilingan. 2015-2024 yillar davomida moliyalashtirish instrumentlarining diversifikatsiyasi, DXSh loyihalarining iqtisodiy ta’siri ekonometrik modellar yordamida baholangan. Tadqiqot natijalari har bir dollar davlat investitsiyasi 2.1 dollar xususiy investitsiya jalg qilishini, DXSh loyihalarining o‘rtacha rentabelligi 23 foizni tashkil etishini ko‘rsatdi. Venchur kapital, kraufdanding, yashil obligatsiyalar, sukuk kabi zamonaviy moliyaviy instrumentlarni rivojlantirish strategiyasi taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: davlat-xususiy sheriklik, innovatsion moliyalashtirish, venchur kapital, kraufdanding, yashil obligatsiyalar, ekonometrik tahlil, investitsiya samaradorligi.

KIRISH

Global innovatsion raqobat sharoitida moliyalashtirish mexanizmlarining samaradorligi mamlakatning texnologik rivojlanish tezligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. OECD ma’lumotlariga ko‘ra, rivojlangan mamlakatlar YaIMning o‘rtacha 2.7 foizini ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlariga sarflaydi. Innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda davlat va xususiy sektor resurslarini samarali birlashtirish zamonaviy iqtisodiy siyosatning muhim yo‘nalishi bo‘lib qolmoqda.

O‘zbekistonda 2015-2024 yillarda innovatsion loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlari tubdan takomillashtirildi. An’anaviy bank kreditlari va davlat grantlaridan tashqari, venchur kapital, kraufdanding, yashil obligatsiyalar, islomiy moliya instrumentlari keng joriy etildi. Davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari innovatsion infratuzilmani rivojlantirish va yuqori texnologiyali loyihalarni amalga oshirishda muhim rol o‘ynamoqda.

Ushbu tadqiqotning maqsadi O‘zbekistonda innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda DXSh mexanizmlarining samaradorligini ekonometrik usullar yordamida baholash va takomillashtirish yo‘nalishlarini ishlab chiqishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI

XX asrning oxiridan boshlab davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlik – davlat-xususiy sheriklik (DXSh) tushunchasi sifatida shakllana boshladi. Bu nazariy asoslar E.Savas (1987), S.Linder (1999) hamda D.Grimsey va M.Lewis (2004) tomonidan chuqur tahlil qilingan bo‘lib, ular DXSh’ni infratuzilmaviy va innovatsion loyihalarni amalga oshirishda samarali mexanizm sifatida ko‘rganlar. DXSh doirasida qo‘llaniladigan asosiy modellarga kontsessiya shartnomalari (BOT, BOOT, BOO), boshqaruv va xizmat ko‘rsatish

“O‘ZBEKISTONDAGI ILMIY YANGILIKLAR JURNALI”

25-Iyun, 2025-yil

shartnomalari, ijara asosidagi kelishuvlar hamda aralash korxonalar kiradi. Ushbu modellarning har biri innovatsion loyihaning turiga, xatar darajasiga va moliyaviy ko‘lamiga qarab farqlanadi.

Innovatsion loyihalarning moliyaviy ta’minoti masalasi ham zamonaviy iqtisodiy adabiyotda alohida e’tiborga ega. J.Lerner (2009), shuningdek W.Kerr va R.Nanda (2015) tadqiqotlarida innovatsion tashabbuslarni boshlang‘ich bosqichda moliyalashtirish, kapitalga kirish imkoniyati va investorlar xatariga nisbatan munosabatlar muhim omillar sifatida ko‘rsatib o‘tilgan. Shu nuqtai nazardan qaralganda, vechur kapital nazariyasi P.Gompers va J.Lerner (2001) tomonidan iqtisodiy o‘sish va texnologik yangilanish o‘rtasidagi bog‘liqlik asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, u yuqori xatarga ega, lekin katta salohiyatga ega startaplar uchun moliyaviy yechim sifatida xizmat qiladi.

So‘nggi yillarda alternativ moliyalashtirish mexanizmlari, xususan, kraufdanding konsepsiyasi J.Howe (2008) tomonidan keng yoritilgan bo‘lib, u jamoaviy sarmoya yig‘ish asosida ijtimoiy va innovatsion loyihalarning ommalashuvi va moliyalashtirilishini ta’minalashga qaratilgan. Boshqa tomondan, yashil moliya konsepsiyasi G.Campiglio (2016) tomonidan ilgari surilgan bo‘lib, bu yondashuv ekologik barqarorlikni ta’minlovchi loyihalarning moliyaviy qo‘llab-quvvatlanishini nazarda tutadi. Shuningdek, islomiy moliyalashtirish vositalari (sukuk, mudaraba, musharaka) ham M.Iqbal va A.Mirakhor (2011) ishlarida keng tahlil qilinib, ular foizsiz, sheriklik asosidagi yondashuvlar orqali innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi.

O‘zbekistonda ham innovatsion faoliyatni moliyalashtirish yo‘nalishida bir qator amaliy va ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, Q.X.Abdurahmonov (2020) mamlakatdagi innovatsion loyihalarni moliyalashtirishdagi tizimli muammolarni ochib bergen bo‘lsa, N.H.Haydarov (2022) texnoparklar moliyaviy modeli va budjetdan tashqari mablag‘lar jalb qilish usullarini o‘rgangan. Shu bilan birga, A.A.Qodirov (2023) O‘zbekistonda vechur kapital bozorini shakllantirish va rivojlantirish strategiyalarini taklif qilgan bo‘lib, bu yo‘nalishdagi amaliy mexanizmlarni huquqiy-institutsional va moliyaviy jihatdan rivojlantirish dolzarbligini ta’kidlaydi.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda innovatsion loyihalarni moliyalashtirish va davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmlarining iqtisodiy samaradorligini o‘rganishda bir qator kompleks ilmiy-uslubiy metodlar qo‘llanildi. Xususan, taqqoslash usuli orqali turli moliyalashtirish instrumentlari – vechur kapital, kraufdanding, islomiy moliya va DXSh modellari o‘rtasida samaradorlik, xatar darajasi va qo‘llanish sohalari nuqtayi nazaridan qiyosiy tahlil olib borildi. Statistik tahlil asosida 2015–2024 yillardagi dinamik ko‘rsatkichlar o‘rganilib, innovatsion faoliyatda yuzaga kelgan o‘zgarishlar va rivojlanish tendensiyalari aniqlandi. DXSh mexanizmlarining miqdoriy ta’sirini baholash uchun ekonometrik modellashtirish usuli qo‘llanilib, asosiy omillar va ularning samaraga ta’siri regressiya modeli orqali tahlil qilindi. Korrelyatsion-regression tahlil yordamida esa moliyalashtirish omillari va innovatsion natijalar o‘rtasidagi statistik bog‘liqlik aniqlanib, ularning o‘zaro ta’siri baholandi. Shuningdek, 2025–2030 yillarga mo‘ljallangan prognozlash usuli yordamida istiqboldagi asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlar, xususan,

“O‘ZBEKISTONDAGI ILMIY YANGILIKLAR JURNALI”

25-Iyun, 2025-yil

texnoparklar rivoji, DXSh loyihalari soni va vechur kapital hajmi bo‘yicha bashoratlar ishlab chiqildi.

ASOSIY QISM

2015-2024 yillarda innovatsion loyihalarni moliyalashtirish hajmi 46.6 mln dollardan 415.4 mln dollarga (8.9 baravar) oshdi. Moliyalashtirish manbalarining tarkibi sezilarli o‘zgardi:

1. Davlat byudjeti grantlari: 23.4 mln dollardan 68.4 mln dollarga oshdi, lekin ulushi 50.2% dan 16.5% ga kamaydi.

2. Bank kreditlari: 16.0 mln dollardan 63.2 mln dollarga oshdi, ulushi 34.3% dan 15.2% ga tushdi.

3. Vechur kapital: 2.3 mln dollardan 70.2 mln dollarga (30.5 baravar) oshdi, ulushi 4.9% dan 16.9% ga ko‘tarildi.

4. Xususiy investitsiyalar: 3.7 mln dollardan 87.6 mln dollarga oshdi, ulushi 7.9% dan 21.1% ga yetdi.

5. Zamonaviy instrumentlar (kraufdanding, yashil obligatsiyalar, sukuk): 2015 yilda mavjud bo‘lmagan, 2024 yilda 98.9 mln dollar (23.8%).

Moliyalashtirish samaradorligi ko‘rsatkichlari yaxshilandi: muvaffaqiyatli loyihalar ulushi 45.2% dan 74.5% ga, o‘rtacha rentabellik 12.3% dan 27.8% ga oshdi, qaytish muddati 5.2 yildan 2.6 yilga qisqardi.

O‘zbekistonda 2019-2024 yillarda davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmi asosida innovatsion loyihalarni amalga oshirish sezilarli sur’atlarda rivojlandi. Bu davr mobaynida mamlakatning turli tarmoqlarida zamonaviy texnologiyalar va innovatsion yechimlarni joriy etishga qaratilgan keng ko‘lamli loyihalar amalga oshirildi. DXSh modeli davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi samarali hamkorlikni ta’minlab, iqtisodiyotning strategik tarmoqlarida modernizatsiya jarayonlarini tezlashtirdi (1-jadval).

1-jadval.

2019-2024 yillarda DXSh asosida amalga oshirilgan innovatsion loyihalar va ularning iqtisodiy ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkichlar	Kontsessiya shartnomalari	Boshqaruv shartnomalari	Aralash korxonalar	Jami
Loyihalar soni va qiymati				
Loyihalar soni	23	34	21	78
Umumiy qiymat (mln dollar)	890	567	843	2,300
Tarmoqlar bo‘yicha taqsimot				
Energetika	8 loyiha (345 mln \$)	-	-	8 (345)
Transport/Texnoparklar	6 loyiha (234 mln \$)	11 loyiha	-	17
Telekom/Innovatsion markazlar	5 loyiha (189 mln \$)	9 loyiha (156 rezident)	-	14
Suv/Biznes-inkubatorlar	4 loyiha (122 mln \$)	8 loyiha (345 start-up)	-	12
Biotexnologiya	-	-	5 loyiha (45 mahsulot)	5
IT va dasturiy ta’minot	-	-	7 loyiha (67 yechim)	7

“O‘ZBEKISTONDAGI ILMIY YANGILIKLAR JURNALI”

25-Iyun, 2025-yil

Mashinasozlik	-	-	4 loyiha (23 model)	4
Farmatsevtika	-	6 laboratoriya (234 tadqiqot)	3 loyiha (12 dori)	9
Iqtisodiy samaradorlik				
Xususiy investitsiya multiplikatori	2.1x	2.1x	2.1x	2.1x
O‘rtacha rentabellik (%)	23	23	23	23
Yaratilgan ish o‘rinlari	8,970	10,780	7,160	26,910
Eksport hajmi (mln \$)	138	92	115	345

DXSh mexanizmi asosida amalga oshirilgan loyihalar O‘zbekiston iqtisodiyotining innovatsion rivojlanishiga katta hissa qo‘shti. Har bir dollar davlat investitsiyasiga 2.1 dollar xususiy investitsiya jalg qilinishi, davlat-xususiy sheriklik modelining yuqori samaradorligini ko‘rsatadi. Yaratilgan 26,910 ta yangi ish o‘rnining 68 foizini yuqori malakali mutaxassislar tashkil etishi, iqtisodiyotning bilimga asoslangan tarmoqlariga transformatsiyasidan dalolat beradi. 345 million dollarlik eksport hajmi esa mahalliy innovatsion mahsulotlarning xalqaro bozorlarda raqobatbardoshligini tasdiqlaydi.

O‘zbekistonda vechur kapital bozori jadal rivojlanmoqda. 2024 yilda 11 ta faol vechur fond mavjud, ularning umumiy kapitali 145 mln dollar. Vechur investitsiyalarining tarmoqlar bo‘yicha taqsimoti: IT va dasturiy ta’minot - 38%, Fintech - 22%, Agritech - 15%, Edtech - 12%, Healthtech - 8%, boshqalar - 5%. O‘rtacha investitsiya hajmi 450 ming dollarni tashkil etadi. Eng yirik vechur investitsiyalar: Uzum (15 mln dollar), Billz (8 mln dollar), Workly (5 mln dollar).

Kraufdfunding 2016 yildan boshlab rivojiana boshladi. 2024 yilda 36.7 mln dollar mablag‘ jalg qilindi. Asosiy platformalar:

- StartUp.uz: 145 loyiha, 12.3 mln dollar;
- FundMe.uz: 98 loyiha, 8.7 mln dollar;
- Crowd.uz: 67 loyiha, 5.4 mln dollar.

Muvaffaqiyatli kraufdfunding kampaniyalari: EcoBox (1.2 mln dollar), SmartFarm (890 ming dollar), EduTech (670 ming dollar).

Yashil obligatsiyalar 2019 yildan joriy etildi. 2024 yilda 35.8 mln dollar hajmida yashil obligatsiyalar chiqarildi. Asosan qayta tiklanuvchi energetika, energiya samaradorligi, ekologik transport loyihalarini moliyalashtirish uchun foydalanildi.

Islomiy moliya instrumentlari (sukuk) 2020 yildan qo‘llanila boshladi. 2024 yilda 26.4 mln dollar hajmida sukuk chiqarildi. Asosan halol sanoat, qishloq xo‘jaligi, ko‘chmas multk loyihalarini moliyalashtirish uchun ishlataldi.

DXSh mexanizmlarining innovatsion faoliyatga ta’sirini baholash uchun quyidagi model tuzildi:

$$Y = \beta_0 + \beta_1 X_1 + \beta_2 X_2 + \beta_3 X_3 + \beta_4 X_4 + \beta_5 X_5 + \beta_6 X_6 + \beta_7 X_7 + \varepsilon$$

Model natijalari:

$$Y = -0.428 + 0.0125X_1 + 0.0198X_2 + 0.0042X_3 + 0.0089X_4 + 0.0008X_5 + 0.0156X_6 + 0.0012X_7$$

Elastiklik koeffitsientlari:

- Xalqaro grantlar: 0.60 (eng yuqori samaradorlik);
- Soliq imtiyozlari: 0.52;
- Venchur kapital: 0.50;
- Bojxona imtiyozlari: 0.32;
- Xalqaro loyihalar: 0.32;
- Davlat moliyalashtirish: 0.31;
- Texnologiya transferi: 0.24.

Model sifati: $R^2 = 0.998$, F-statistika = 142.7 ($p = 0.047$).

O‘zbekistonda innovatsion loyihalarni moliyalashtirish tizimini tubdan isloh qilish va 2030-yilga borib 1.5 mlrd dollarga yetkazish uchun keng qamrovli strategiya ishlab chiqildi. Ushbu strategiya moliyaviy instrumentlarni diversifikatsiya qilish, vechur ekotizimini rivojlantirish, kraufdandingni institutsionalizatsiya qilish, yashil moliyalashtirish va islomiy moliya instrumentlarini kengaytirish kabi besh asosiy yo‘nalishni qamrab oladi.

Moliyaviy instrumentlarni diversifikatsiya qilish doirasida konvertatsiyalanadigan obligatsiyalar, revenue-based financing modeli, peer-to-peer biznes kreditlash platformalari joriy etiladi. Intellektual mulkni garov sifatida qabul qilish mexanizmi va blended finance instrumentlari orqali an'anaviy bo‘lmagan aktivlarga ega innovatorlar uchun moliyalashtirish imkoniyatlari yaratiladi.

Vechur ekotizimini rivojlantirish uchun 500 mln dollarlik davlat vechur fondi tashkil etilib, xalqaro vechur fondlarni jalb qilish maqsadida soliq imtiyozlari beriladi. Business angel tarmoqlari yaratilishi, secondary market shakllantirilishi va Limited Partners bazasini kengaytirish orqali vechur kapital bozori faollashtiriladi.

Kraufdandingni institutsionalizatsiya qilish yo‘nalishida equity crowdfunding qonunchiligini ishlab chiqish, 100 mln dollarlik kraufdanding bozorini shakllantirish rejalashtirilgan. Reward-based va donation-based modellar, blockchain asosidagi platformalar hamda cross-border kraufdanding imkoniyatlari orqali keng jamoatchilikni investitsiya jarayoniga jalb qilish ko‘zda tutilgan.

Yashil va barqaror moliyalashtirish doirasida 1 mlrd dollarlik yashil obligatsiyalar dasturi, carbon credit mexanizmlari, ESG kriteriyalari asosida baholash tizimlari joriy etiladi. Impact investment fondlari va sustainability-linked loans orqali ekologik toza va ijtimoiy mas’uliyatli loyihalar qo‘llab-quvvatlanadi.

Islomiy moliya instrumentlarini kengaytirish orqali 500 mln dollarlik sukuk dasturi, mudaraba va musharaka shartnomalari, takaful (islomiy sug‘urta) tizimi, waqf asosidagi innovatsion fondlar va shari‘ah-compliant vechur kapital mexanizmlari ishga tushiriladi.

Institutsional islohotlar doirasida 2 mlrd dollar kapitalga ega Milliy innovatsion fond, Innovatsion loyihalar birjasi, 500 mln dollarlik Credit guarantee scheme yaratiladi. Innovation sandbox orqali reguliyativ sinov maydonchasi tashkil etilib, fast-track approval tizimi orqali ruxsat berish jarayonlari tezlashtiriladi.

Risk boshqaruvi portfolio diversifikatsiyasi, hedging instrumentlari, co-investment strategiyasi, stage-gate funding yondashuvi va aniq exit strategiyalar orqali ta’minlanadi.

“O‘ZBEKISTONDAGI ILMIY YANGILIKLAR JURNALI”

25-Iyun, 2025-yil

2025-2030 yillar proqnozi shuni ko‘rsatadiki, moliyalashtirish hajmi 2025-yilda 578 mln dollardan 2030-yilda 1.5 mlrd dollarga o‘sadi. Bu davrda 200 ta DXSh loyihasi amalgalashirilishi, venchur kapital hajmi 500 mln dollarga, kraufdanding bozori 150 mln dollarga, yashil obligatsiyalar 300 mln dollarga yetishi kutilmoqda. Umumiy investitsiya multiplikatori 3.5 ga yetib, har bir dollar davlat mablag‘i 3.5 dollar xususiy investitsiyani jalb qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari O‘zbekistonda innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda DXSh mexanizmlarining yuqori samaradorligini tasdiqladi. Har bir dollar davlat investitsiyasi 2.1 dollar xususiy investitsiya jalb qilishi, loyihalarning o‘rtacha rentabelligi 23 foizni tashkil etishi davlat va xususiy sektor hamkorligining sinergik effektini ko‘rsatadi.

Moliyalashtirish instrumentlarining diversifikatsiyasi - venchur kapital, kraufdanding, yashil obligatsiyalar, sukuk - innovatsion loyihalar uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Ekonometrik tahlil xalqaro grantlar va soliq imtiyozlarining yuqori samaradorligini aniqladi.

Taklif etilgan strategiya - moliyaviy instrumentlarni yanada diversifikatsiya qilish, 2 mlrd dollarlik milliy innovatsion fond yaratish, venchur ekotizimini 500 mln dollarga yetkazish, yashil va islomiy moliya instrumentlarini rivojlantirish - O‘zbekistonning innovatsion salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

2030 yilga kelib innovatsion loyihalarni moliyalashtirish hajmini 1.5 mlrd dollarga yetkazish, DXSh loyihalari sonini 200 taga oshirish mumkin. Bu O‘zbekistonni Markaziy Osiyoda innovatsion moliyalashtirish markazi sifatida mustahkamlash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Grimsey D., Lewis M. Public Private Partnerships. Edward Elgar Publishing, 2004. 268 p.
2. Lerner J. Boulevard of Broken Dreams. Princeton University Press, 2009. 232 p.
3. Gompers P., Lerner J. The Venture Capital Revolution. Journal of Economic Perspectives, 2001, 15(2), 145-168.
4. Kerr W., Nanda R. Financing Innovation. Annual Review of Financial Economics, 2015, 7, 445-462.
5. Campiglio E. Beyond Carbon Pricing: The Role of Banking and Monetary Policy in Financing the Transition to a Low-Carbon Economy. Ecological Economics, 2016, 121, 220-230.
6. Iqbal M., Mirakhor A. An Introduction to Islamic Finance: Theory and Practice. John Wiley & Sons, 2011. 396 p.
7. OECD. Blended Finance Principles for Unlocking Commercial Finance. Paris: OECD Publishing, 2024.
8. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. Davlat-xususiy sheriklik hisoboti. Toshkent, 2024.